

SAHRO LOCHINI SALOHIDDIN

Koraboyev Murodjon

Oriental universiteti katta o‘qituvchisi

Soyibjonova Lobar

Oriental universiteti iqtidorli talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada buyuk musulmon sarkardasi bo‘lmish Salohiddin Ayyubiy haqida so‘z boradi. Uning qilgan buyuk xizmatlari, xususan, Quddusning fath etilishi, Salohiddinning nasroniyalar ustidan chiqargan odilona hukmlari, Misr me’morchiligidagi tutgan o‘rni va hayot yo‘li haqida bayon qilamiz. Maqolani o‘qir ekanmiz, Salohiddin Ayyubiyni nafaqat musulmonlar, balki nasroniyalar ham nega chuqur hurmat qilib yaxshi ko‘rishlarini anglab yetamiz.

Kalit so‘zlar: xazboniy, Tikrit, Asadiddin Shirkux, fotimiylar, salib yurishlari, Reno de Shatilyon va Luzinyan, Xattin, Quddus, Damashq.

XII asrning yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Salohiddin Ayyubiy milodiy 1138-yil (hijriy 532-yil) Iroqning Tikrit shahrida tug‘ilgan. Ko‘pgina manbalarda uning millati kurdrlarning xazboniy qabilasidan ekanligi keltiriladi. Vafoti esa milodiy 1193-yil (hijriy 589-yil) 4-mart kuni Damashqda bo‘lgan. To‘liq ismi al-Malik an-Nosir Saloh ad-duniya vad-diyn abul Muzaffar Yusuf ibn Ayyub. Yevropada Saladin ismi bilan nom qozongan. Musulmon olamida Yusufga Salohiddin (Saloh ad-diyn) faxriy laqabi berilgan bo‘lib, “dinning saodatli iqibili”, “islom saodati” degan ma’noni bildiradi. U ko‘p yillar davomida Misr, Suriya, Shom, Yamanning hukmdori bo‘lgan(1174-1249). Ayyubiylar sulolasining asoschisi hisoblanmish Salohiddin Ayyubiy salib yurishlariga qarshi qilgan muvaffaqiyatli yurishlari, Quddus fathi bilan musulmon olamida mashhur shaxs hisoblanadi.

Salohiddin yoshligidan diniy ilmlarga ko‘p qiziqqan bo‘lib, Qur’on hafizi, Abu Tammomning “Hamas”(10 jildlik arab she’riyati jamlanmasi)ni yoddan bilgan, riyoziyotni ham yaxshi bilgan. Ilmga berilgan shaxsligini ko‘rib, uning kelajakda mohir sarkarda bo‘la oladi deb aytish qiyin edi. Voyaga yetganda otasi Najmaddin Ayyub uni Madinadagi madrasalarning birida tahsil olish uchun yuboradi¹ U Nuriddin Zangiyni o‘ziga ustoz deb bilgan. Otasi Ayyub esa Nuriddining voliysi(hokimi) bo‘lgan. Keyinchalik amakisi Asad ad-Diyn Shirkux sababli harbiy sohaga kirib keldi,

¹ Jihod Turboniy. Islom ummatining yuz buyuk shaxsi. – Istanbul.: “FURKAN NESHRIYAT”. 2020. 489-bet

dastlabki faoliyatni oddiy zabit bo‘lib boshlagan Salohiddin keyinchalik amakisi bilan Misr fathlarida ham qatnashdi. O‘scha paytlarda Abbosiylar xalifaligiga bo‘ysunmayotgan Fotimiylar hukmronligiga barham berib, 1171-yil Salohiddin Misr hukmdoriga aylandi. Shu tariqa, Nuriddin Zangiydan mustaqil tarzda hokimyat yurita boshladi. Ammo tez orada otasining “O‘g‘lim, seni atrofingdagi shaxslar sendan ko‘ra Nuriddinga sodiqroq, agar mabodo unga qarshi kurash boshlasang ham sening yoningdagilar uning tarafini olishadi” degan mazmundagi xat yozganidan so‘ng u Nuriddinga uning buyruqlariga so‘zsiz itoat etish haqida xat jo‘natadi. Faqatgina Nuriddinning vafotidan so‘nggina 1174-yildan mustaqil tarzda hokimyat yurita boshladi. “Men uchun barchasi amakim bilan yurishlardan boshlandi. U Misrni qo‘lga kiritgach, vafot etdi. Shundan so‘ng Alloh menga o‘zim kutmagan hokimyatni berdi” deb yozadi mashhur sarkarda Salohiddin Ayyubiy o‘z qaydnomalarida¹.

Shu o‘rinda salib yurishlari haqida to‘xtalsak, bu urush 1095-yil Vizantiya imperatori Rim Papasi Urban 2 dan musulmonlarga qarshi kurashish uchun, xususan saljuqiylargacha qarshi urushish uchun yordam so‘rab xat yozganidan so‘ng boshlanib ketdi. Rim Papasi ham bunday vaziyatdan unumli foydalandi va sharqqa tomon qo‘shin tortish uchun Fransiyaning janubida joylashgan Klermon shahrida yig‘ilish o‘tkazdi. Yig‘ilganlarga dinni niqob qilib, muqaddas burch asnosida Sharqda asal va sut daryo bo‘lib oqayoganligini, u yerlarda unumdar yerlar ko‘pligini, u yerga ketganlarni oilasini o‘zi qaramog‘iga olib boqishini va’da qilib birinchi salib yurishlarini boshlab yubordi. Birinchi salib yurishlarida qatnashganlar o‘zi shundoq ham feodal va imperator soliqlaridan ezilgan dehqonlar bo‘ldi. Ular bunday taklifga jon deb rozi bo‘ldilar.

1144-yil Imomiddin Zangiy salibchilardan Edessa grafligini tortib oladi. Bu esa 2-salib yurishlariga sabab bo‘ldi. Tarixdan ma’lum-ki, islam yengilishi mukin, zulmda yashashi mumkin, ammo hech qachon taslim bo‘lmaydi. Shunday vaziyatda bir buyuk shaxs yetishib chiqqanligi, dinni va xalqni qutqarganligini ko‘ramiz. Shunday buyuk shaxslardan biri bu Salohiddin Ayyubiy edi. Misrni qo‘lga kiritgach, Salohiddin salibchilarga qarshi qo‘shin tortdi. Ramle shahri yaqinidagi mag‘lubiyatdan so‘ng, Salohiddin Quddusni qaytarib olishga ichgan qasamini ustidan chiqish uchun har tomonlama tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Salibchilarning barcha ittifoqchilarini birmabir yo‘q qilgach sulton nasroniylar o‘zi urush ochishini kutib turdi. Nasroniylar shunday qildilar ham. O‘scha paytda taxtga chiqqan qirol Gi de Luzinyan va sherigi Reno de Shatilyon hajga ketayotgan karvonni talatib, barcha musulmonlarni o‘ldirtiradi. Shundan so‘ng Salohiddingga nasroniy salibchilarga qarshi yurish qilishga yo‘l ochildi.

¹ <https://qalampir.uz>

1185-yil salibchilar Quddusdan qo'shin to'plab, yo'lga chiqishdi. Salohiddin esa ularni Falastinning Xettin qishlog'ida kutib turdi. Yo'lning uzoqligi, havoning issiqligini hisobga olib, Salohiddin yo'ldagi barcha quduqlarni ko'mdirib tashladi. Holdan toygan, charchagan va suvsizlanib qolgan salibchilar qo'shini yo'lning o'zida yaxshigina yo'qotishlarga duch kelib, Xettinga yetib kelishdi. 1187-yil 4-iyul kuni boshlangan jang Salohiddin qo'shini g'alabasi bilan tugadi. O'n ming kishilik qo'shini bilan yengilgan nasroniylar hali to'liq mag'lub bo'lмаган edi. Ularni Quddusda hali yana oltmish minglik aholisi bor edi. 1187-yil 20-sentabr kuni shaharni egallash uchun qamal boshlandi. 27-sentabr kuni qal'a devorlari manjanaqlarga dosh berolmay, musulmonlarga yo'l ochdi. Sulton Salohiddin Quddusga 2-oktabr juma kuni kirib keldi. Ikki tomondan ham kattagina yo'qotishlar bo'ldi. Yuz yil avval salibchilar shaharga qanday kirib borgan borsalar, Salohiddin mutlaqo aksini qildi. Yuz yil avval shaharni yetmish minglik musulmonlar va yahudiylar qoniga to'ldirgan nasroniylarga Salohiddin omonlik berdi. To'lov evaziga, qurbi yetmaydiganlarni tekinga ozod qilib yubordi, shaharni tozalattirdi. Otxona o'rniда foydalaniyatgan musulmonlarning muqaddas qadamjosi bo'lmish Masjid ul-Aqsoni tozalattirib, unga ustozি Nuriddin Zangiy yasattirgan minbarni keltirib o'rnattdi. Sababi Nuriddin butun umri davomida Quddusni fath etishni orzu qilib, Masjid ul-Aqsoda juma namozini o'qib, xutba qilishni orzu qilgan edi. Bu orzusiga yetolmay o'lib ketgan buyuk hukmdorning orzusini shogirti Salohiddin Ayyubiy amalga oshirdi va bu minbar 1969-yilga qadar Masjid ul-Aqsoda savlat to'kib turdi. Ma'lumot o'rniда aytib o'tish kerak-ki, 1969-yil sionistlar masjidni yoqib yuborganlarida minbar ham qo'shib yoqib yuborildi. Keyinchalik bu minbar Iordaniyaga olib o'tilib, u yerda 5 yil ta'mir qilinib, eski holatiga keltirilgandan so'ng yana Masjid ul-Aqsoga qaytarildi.

Shu tariqa Salohiddin islomning yuksak odobini nasroniylarga ko'rsatib qo'ydi. Birgina Salohiddin tanlagan yo'l sababli necha minglab nasroniylar islom diniga o'tishdi. Salohiddin Quddusdan tashqari Askalon, Akra, Tiveriada va Trablus grafligining bir qismini egalladi¹. Quddus va boshqa shaharlar qo'ldan ketganidan xabar topgan Rim Papasi Kliment III yangi salib yurishlarini tashkillashtirdi(1189-1192). Fransiya qiroli Filipp II, Angliya qiroli Richard I Sheryurak, Muqaddas Rim imperatori Fridrix I Barbarossa ham bu yurishga jalb etilganlar. 1189-yil salibchilar Akra shahrini qamal qila boshladilar. Dastlab Akra, keyin Asqalon, so'ngra Afsufni egallagan Richard 1 Sheryurak bor-yo'g'i yetti yuz kishini qurban berdi. Salohiddin esa bu janglarda yetti ming askarlaridan ayrildi. Shundan so'ng Salohiddin Richard 1 bilan boshqa ochiqchasiga jang qilmadi. Dushmanidan chekinish asnosida raqibning oziq-ovqat zahiralarini, otlarning yem-hashakalarini ustamonlik bilan yo'q qilib

¹ <https://qalampir.uz>

yuborish, quduqlardagi suvlarni zaharlash bilan dushmanni kuchiga bolta urib borar edi. 1191-1192-yillar davomidagi quvg‘inning foydasi bo‘limgach, Richard 1 Sheryurak Quddusni egallash niyatidan qaytishga majbur bo‘ldi. Sababi, agar u Salohiddinni ta’qib qilishni davom ettirsa, oziq-ovqatsiz, suvsiz qo‘shinning katta qismi qirilib ketishi aniq edi. Shu bilan birga turli millat vakillaridan yig‘ilgan qo‘shin ichida shundoq ham noroziliklar avj olayotgan edi. Shuni hisobga olib, Richard 1192-yilning 2-sentabrida Salohiddin bilan uch yil muddatga sulh tuzishga qaror qildi. Sharhnomaga ko‘ra, Quddus Salohiddinning qo‘l ostida qoladigan bo‘ldi. Bu esa sarkardaning hech shubhasiz ulug‘ safari edi. Shundan keyin Richard Ovrupaga, Salohiddin esa Damashqqa qaytishga qaror qildi¹

U Salibchilar bilan sharhnomalardan tuzgach, Salohiddin Ayyubiy milodiy 1193-yil 4-mart kuni (hijriy 589-yil safar oyining 27-kuni) Damashqda vafot etdi. Uning o‘rnini katta o‘g‘li al- Malik ul- Afdal Ali egalladi.

Sulton Salohiddin hukmronligi davomida Misrda kelib chiqqan diniy tarqoqlikka barham berdi, Quddusni salibchilardan xalos etdi. Bundan tashqari, Salohiddin qurilish va me’morchilikka ham yaxshigina hissa qo‘shdi. Uning davrida Falastin, Misr, Yaman va Hijozda ko‘plab madrasalar, masjidlar, ko‘priklar, qal’alar qurdildi. Qohira devorlari, Qohira qal’alari, Nil daryosi ustidagi ko‘priklar, Amr ibn Os masjidi, Qoya gumbazi qurilishi, masjid ul-Aqsoning ta’mirlanishi, Salohiyya kasalxonasi shularning eng muhimlaridandir². Qohiradagi Salohiddin Ayyubiy qo‘rg‘oni va qal’asi hukmdorning shavkatidan esdalik sifatida bugungi kungacha saqlanib kelyapti. Atrofi baland devor bilan o‘ralgan ko‘pburchakli bu qo‘rg‘on 1176- va 1207-yillarda me’mor Qoraqush rahbarligida Muqattam tog‘i tizmalariga qurilgan. Misr yozuvchilarining aytishicha, qo‘rg‘on qurilishiga hatto Gizadagi ehromlardan(piramidalardan) tashib keltirilgan palaxsa toshlar ham ishlatib yuborilgan. Qo‘rg‘on ichiga toza suv yo‘li(vodoprovod) ham tortib kelingan, bu suv yo‘lidan yaqin-yaqinlargacha foydalanib kelingan³. Yevropaliklarning hatto tushiga ham kirmagan shifoxonalarda bemorlarga dori-darmonlar, turli xil ovqatlar bepulga berilgan. Ba’zi manbalarda Salohiddinning salibchilarga qarshi kurashgan qo‘shiniga 12000 ot tarqatgani ham yoziladi.

Shuncha boyliklari bo‘lsa ham Sulton Salohiddin o‘ziga hech narsa olmagan. Sulton umri nihoyasi yetgunga qadar zakot berish uchun nisobga yetuvchi boylika ega bo‘limgan, merosxo‘rlarga boylik qoldirmay, omonatini Egasiga topshirgan⁴. U vafot etganda undan atigi bitta oltin yombi va qirq yetti dirham pul meros qolgan. Hattoki,

¹ A.M. Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. – T.: “Azon kitoblari” 2021. 340-bet

² Selahaddin Eyyubi. TDV Islom Ansiklopedisi. Istanbul. 2009. 337-bet

³ A.M. Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. – T.: “Azon kitoblari” 2021. 380-bet

⁴ A.M. Tursun. Salohiddin Ayyubiy. T. “QAQNUS MEDIA” 2018. 21-bet

sultonning dafn marosimi uchun kerakli narsalarni sotib olishda qarz olishga ham majbur bo‘lishgan. Tobutini ustiga esa oddiy yo‘l-yo‘l mato va kiyim yopilgan. Kamtarona yashashni afzal bilgan sulton Salohiddinni so‘nggi manzilga ham kamtarona kuzatildi. Bugungi kunda buyuk qo‘mondon va hukmdorning qabri hozirda Damashqda saqlanmoqda. Damashqqa kelgan Yevropalik sahoyatchilar albatta sulton Salohiddinning maqbarasini ziyorat qilishadi. Negaki, bu inson Bayt ul-Maqdisni egallaganda nasroniylargacha qilgan go‘zal muomalasini yuksak qadrlashadi. Vaholangki, bu voqeadan taxminan 100 yil muqaddam nasroniylar Quddusni egallaganda hammani qatliom qilgandi. Erkak-u ayolni, yosh-u qarini, hattoki bolalarni ham o‘ldirgandilar. Homiladorlarni qornidagi bolasini ham chiqarib o‘ldirgandilar. Ammo bunga javoban Salohiddin Ayyubiyning ko‘rsatgan oliyhimmatligi, mardligi, musulmoncha odobini ko‘rgan g‘ayridinlar buyuk hukmdorni hali-hanuzgacha chuqr ehtirom va hurmat bilan eslashadi. Uning jasorati, ko‘rsatgan mardliklari nafaqat musulmon olamida, balki butun dunyo tarixi zarvaraqlarida mangu qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.M. Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. – T.: “Azon kitoblari”. 2021.
2. Selahiddin Eyyubi. TDV Islom Ansiklopedisi. Istanbul. 2009.
3. A.M. Tursun. Salohiddin Ayyubiy. – T.: “QAQNUS MEDIA”. 2018.
4. Jihod Turboniy. Islom ummatining yuz buyuk shaxsi. – Istanbul.: “FURKAN NESHRIYAT” 2020.
5. <https://qalampir.uz>